XALQ DEPUTATLARI DAVLATOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 29-mart IV-39-21-6-219-K/24 Davlatobod tumani

Xalq deputatlari Davlatobod tuman Kengashining navbatdagi oʼttiz toʻqizzinchi sessiyasini chaqirish toʼgʼrisida

“Mahalliy davlat hokimiyati toʼgʼrisida”gi Oʼzbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga muvofiq,

Q A R O R Q I L A M A N :

I. Xalq deputatlari Davlatobod tuman Kengashining navbatdagi oʼttiz toʻqizzinchi sessiyasi 2024-yil 3-aprel kuni soat 15-00 da Davlatobod tumanida chaqirilsin.

II. Xalq deputatlari Davlatobod tuman Kengashining navbatdagi oʼttiz sakkizinchi sessiyasi kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Davlatobod tumanidagi Xalq qabulxonasi mudirining “Sektorlar, hududiy tashkilot rahbarlari, hokim yordamchilari faoliyatini oʻrganish natijalari va aholi murojaatlari va muammolari bilan ishlash holati yuzasidan” axboroti toʻgʻrisida.

2. “Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar toʻgʻrisida hisoboti.

3. Mahallalarda ijtimoiy-maʼnaviy muhitni sogʻlomlashtirish, oilalar va xotin-qizlarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, oilaviy ajrimlarning oldini olish hamda xotin-qizlar oʻrtasida oʻz joniga qasd, suiqasd qilish holatlarining oldini olish boʻyicha olib borilayotgan ishlar samaradorligi toʻgʻrisida hisoboti.

4. Uychi tumani misolida Davlatobod tumanini kambagʻallikdan va ishsizlikdan holi hududga aylantirish boʻyicha amalga oshriladigan vazifalar toʻgʻrisida.

5. Yangi ish oʻrinlarini yaratish va aholi bandligini taʼminlash boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar toʻgʻrisida hisoboti.

6. Davlatobod tumanida maktabgacha va maktab taʼlim tizimining bugungi kun holati, uning sifat va samaradorligini oshirish boʻyicha istiqboldagi vazifalar toʻgʻrisidagi hisoboti.

7. Davlatobod tumanida 5-bosqich “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar roʻyxatini tasdiqlash toʻgʻrisida.

8. Hududda atrof muhitni muhofaza qilishning holati toʻgʻrisida

9. Boshqa masalalar.

Kengash raisi

TADJIMIRZAYEV
ANVAR
ABDUVAXIDOVICH